

"O'ZKIMYOSANOAT" AJ RASMIY BAYONOTI

// 31.05.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kfk-bayonot>



30-may kuni Nuz.uz va Upl.uz veb-saytlarida “Qizilqum fosforit kompleksi” kimga tegishli? sarlavhasi ostidagi maqolalar e’lon qilindi. Mavzu yuzasidan “O’zkimyosanoat” AJ quyidagilarni ma’lum qiladi.

Vazirlar Mahkamasining “Kimyo sanoati sohasida fosforli o’g’itlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2022-yil 21-fevraldagi 77-son qarori qabul qilingan bo’lib, mazkur qaror asosida 2022-yil 10-mart sanasidan “Olmaliq KMK” AJ tarkibidagi “Qizilqum fosforit kompleksi” barcha tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan holda “O’zkimyosanoat” AJ tarkibiga o’tkazilgan.

Hozirda ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta’minlash, mavjud quvvatlardan to’liq foydalanish hamda mahsulot tannarxini pasaytirish yuzasidan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, korxonada faoliyatini yanada kengaytirish va ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish maqsadida xorijiy hamkorlar hamda investorlar bilan muzokaralar olib borilmoqda.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mavzuga oid aniq, batafsil ma’lumotlarga ega bo’lmay turib, jamoatchilik orasida tushunmovchilik va muhokamalarga sabab bo’ladigan fikrlarni bayon qilishdan oldin “O’zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmatiga murojaat qilishingiz maqsadga muvofiq bo’lishini, shuningdek, “O’zkimyosanoat” AJ OAV va blogerlar uchun doim ochiqligini yana bir bor eslatib o’tamiz.

“O’zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati